

Qoloq O'quvchi Yoki Past O'zlashtiruvchining Sabablari Va Uni Yechimlari

Nasiba Gadayeva¹

Annotatsiya: Mazkur maqola maktabdagi dolzarb masalardan biri bo'lgan past yoki qoloq o'quvchilarni faollashtirishga bag'ishlangan.

Muallif faoliyati past o'quvchilarni sabablari masalasi mahoyatini ochib bergan.

Kalit so'zlar: Xushmuomala, iqtidor, ishonch, tortinchoq, mehri, erkatoq, qalb og'rig'i..

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi yoshlarni ta'lim tarbiya olishi uchun maktablarni zamonaviylashtirish, o'quvchilarga sharoit yaratish va o'qituvchilarni jamiyatdagi mavqiyini oshirishga juda katta e'tabor berilmoqda. Prezidentimiz SHavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganidek "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz ayniqsa, endi hahyotga kirib kelayotgan o'gil- qizlarimiz amal qilishlarini men luda -luda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar.

"Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlantmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat- hurmat topishi, lahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul asir bo'lishi uarning o'z otalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq.

Biz ustozlar yoshlarimizni turli sohalar bo'yicha yetuk kadrlar qilib yetishtirishimiz kerak.

Chunki, ular mashaqqatli mehnatni qadrlashi va o'zlari ham mehnatkash, bo'lmog'I lozm. Bolalikdan mehnatga o'rgatishish faqat oilada emas maktabda ham e'tabor berilishi lozim bo'lgan jarayondir. Ustozlar har bir dars jarayonida o'quvchilarni topshiriqlarni vaqtida chin qalbdan sifatli bajarishga odatlantirish mas'uliyatni his etishga chorlash maktabda o'qituvchilar zimmasidadir

Bu vazifani o'qituvchilarni ko'pchiligi vijdonan a'lo darajada udalaydi. Shunga qaramay maktabda o'zlashtirishi, bilim darajasi past bo'lgan o'quvchilar bor.

O'ZLASHTIRISH KO'RSATKICHI PAST BO'LGAN O'QUVCHI KIM?

Past o'zlashtiruvchi o'quvchi o'quv fanlarni davlat ta'lim standartlarida belgilab qo'yilgan darajada o'zlashtira olmayotgan, bilim olishga ishtiyoqi pasayib ketgan va o'ziga ishonchi yuqolgan o'quvchilardan biri bo'ladi.

Xo'sh, buning sabablari va muammo yechimi qanday bo'ladi?

Vaziyatni sabablari tahlili quyidagilarni keltirmoqda.

O'quvchilarning past o'zlashtirishga quyidagi holatlardan biri yoki bir nechitasi bo'lishi mumkin.

- O'quv materialining umuman yoki qisman tushunmasligi.
- O'qituvchining mahorati yetishmasligi.
- O'quvchining sinfda o'zini luda yomon his qilishi.
- o'rtog'lari oldida kamsitilishi.
- Tengdoshlari orasida yupin kiyinishi va nochorligi tufayli o'zini o'zi kamsitishi.
- O'quvchini o'yinqaroqligi dankasaligi va xayol parastligi tufayli diqqatni jamlay olmasligi.
- O'quvchi davomatini pastligi.
- O'qituvchi tomonidan past o'zlashtiruvchi o'quvchilar o'z vaqtida aniqlanmasligi va e'tabor qaratilmaganligi.
- O'qituvchi past o'zlashtiruvchi o'quvchi hamda uning ota onasi bilan muntazam, izchil reja asosida ish olib bormasligi.
- O'quvchining oilaviy ijtimoiy muhtidagi salbiy omillar.
- O'quvchining sog'ligi va psixikasi bilan bog'liq holatlar.

¹ Samarqand viloyati Narpay tumani XTBg qarashli 60F-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

- O'quvchining dars qilishi, o'zlashtirishi va mustaqil ishlash uchun shart -sharoitni yo'qligi.
- Ota- onasining doimiy nazorati va yordami yetishmasligi.
- O'quvchi ota-onasidan uzoqdaligi.
- Ota-ona va o'quvchi o'rtasida aloqa yo'qligi, bor bo'lsada ota-ona e'tiborsizligi.
- O'quvchi tarbiyasi birovlar qo'lida mutloqa nazoratsizligi tufayli va boshqalar.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev aytganidek "Haqiqatdan ham hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda.

Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi- yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, turli ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmogda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda.

Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla- ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak.

Bolalarimizni birovlarining qo'lida berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim.

Xo'sh qanday qilib bu toifa o'quvchilar bilan ish olib borib fanlarni o'zlashtirishga, o'ziga ishonch, dadillasitirishli fanlarga qiziqtirishni orttirish mumkin.

O'zinning uzoq yillik pedagogik tajribamdan, o'quvchilarni kuzatish jarayonidan kelib chiqib past o'zlashtiruvchi o'quvchini talim-tarbiya jarayonida nafaqat faollashtirish balki tengdoshlaridan o'zib ham ketishi mumkin deb hisoblayman.

Eng avval pedagog o'quvchini to'la-to'kis va har tamonlama o'rganishi kerak. YUqorida keltirilgan holatlarni qaysi biri ta'sirida bola past o'zlashtirayotganligi tahlil qilishi hamda holatning asl sababini aniqlash lozim bo'ladi.

Shundan so'ng o'qituvchi past o'zlashtiruvchi o'quvchiga qaratilgan maxsus yondashuv orqali u bilan shug'ullanishi kerak bo'ladi. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak.

Yoshlarimiz dars mavzusini uning mohiyatini qisman yoki umuman tushunmasligi bola bu holatni o'zi tushunmasligi mumkin. Yoki anglasa ham aytishga tortinishi mumkin. Bu holatda o'qituvchi o'zining pedagogik mahoratini ishga solib, dars mavzusini soddalashtirib, o'xshash misollar yordamida yotig'I bilan tushuntirishi mumkin. Yoki har xil o'yinlar yordamida; masalan, "Eng birinchi" [Topshiriq sodda qilib beriladi, vaqt belgilanadi, javobni past o'lashtiruvchi o'quvchidan so'raladi. Javob kam bo'lsa ham ijobiy tomoni ko'proq oshirilb maqtab, harakatlarini qo'llab- quvvatlab o'zi biladi, o'zi aytadi faollikka jalb etishi lozim. Rasmlar orqali topshiriq beriladi. Javobni bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchidan so'raladi.

Eng birinchi vazifani bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchidan doim so'ralsa bu toifa o'quvchi o'z ustida izlanib tayyorgarlik ko'rib darsda faol bo'ladi. E'tiborsiz o'tirmaydi.

O'quvchi sinfda o'zini erkin his etmasa bu o'quvchida o'zida ishonch va mehr yetishmaydi.

O'qituvchi xushmuomalali bo'lib bu o'quvchini hech kimdan kam emasligini unda ham iqtidor borligini takror va takror aytib o'ziga ishonchini o'yg'otish shart. Bu toifa o'quvchilarga alohida mustaqil topshiriq berib javobini bir ozdan so'ng so'ralsa o'quvchida ishonch tuyg'usi paydo bo'la boshlaydi. Har bir darsda o'quvchiga e'tibor berilsa o'quvchini o'ziga bo'lgan ishonchi to'la kamol topadi. O'quvchi mavzuni noto'g'ri aytsa savollarga javob berolmasa sinfdoshlari uni ustidan kulsa bu o'quvchi darsda umuman gapirmaslikni, jim o'tirishni afzal ko'radi. Bu toifa o'quvchini gapirtirishdan avval o'qituvchi o'quvchilarga hech kimni javobi noto'g'ri emas siz qo'rmasdan fikringizni ochiq bayon qiling deb o'quvchini quvvatlab borish yaxshi samara beradi.

Bu usulda mavzuni to'g'ri yoki noto'g'riligida emas, o'quvchi tengdoshlari oldida o'z fikrini bayon eta olishida. E'tiborni shunga qaratish kerak. Navbatdagi javobda qisman haqsan, lekin mana bu fikring salgina noto'g'ri deb to'g'rilab yuborish lozim. O'quvchi fikrini erkin bayon qilishga shart - sharoit yaratish muhim.

Agar o'quvchida dankasalik, o'yinqaroqlik sezilsa, mavzuga qiziqmasa, diqqatni darsga jalb etolmasa u holda bu toifadagi o'quvchilar uchun sinfda musabaqa tashkil etib har bir savol, topshiriqni to'g'ri, aniq bajarishga jalb qilib, uni rag'batlantirib borish yaxshi natija beradi. Masalan; ona tili va adabiyot, tarix, geografiya va boshqa fanlardan "Ertak", "Egizaklar", "Aukcion", "Janjir" kabi o'yinlar orqali bu toifa o'quvchilarga dars mavzusini tushuntirish mumkin. Kim bu - ballni qo'lga kiritisa o'qituvchidan sezilarli rag'bat olsa va o'zi ham nimagadir qodir ekanligini his qilsa eng o'yinqaroq, past o'zlashtiruvchi o'quvchi shu onda eng faol o'quvchiga aylanadi.

Quyidagi o'quvchilarni maktabga kelmasligini sabablarini tahlil qilamiz. Buning sabablarini tahlil qilamiz. Buning ob'ektiv sabablari bor. Yani o'quvchini o'ziga bog'liq hamda bog'liq bo'lmagan sabablari bor. Ular quydagilar;

- ota-ona nazoratsiz o'quvchilar
- ota-ona daromad qilishni yani pul topishni birinchi darajaga qo'yganligi sababli
- erkatoy o'quvchilar

- Yuqori sinflarda ro'zg'or yukini olgan o'quvchilar
- ota-onasi bo'lmagan o'quvchilar, qarindoshlar qo'lida qolgan o'quvchilar
- Notinch oila farzandlari
- ota-onasi chetda ishlaydiganlar farzandi tarbiyasi o'zgarar zimmasida nazoratsiz
- betobligi va sog'ligi bilan bog'liq bo'lgan doimiy sabablar.

Yuqorida keltirilgan sabablar tufayli o'quvchi dars qoldiradi yoki maktabga uzoq muddatga kelmaydi. Buning natijasida o'quvchi barcha fanlardan mavzuni o'zlashtira olmaydi. Har bir fan o'qituvchisi alohida shug'ullanishga vaqti yetmaydi. Ba'z i ota-onaga farzandining kelajagi qiziqitirmaydi. Befarqligi sababli ular bilan muloqatni foydasi bo'lmaydi.

Bunday vaziyatda o'qituvchi o'quvchilarga mavzuni qanday yetkazadi?.

Natijada o'quvchi tengdoshlaridan qolib ketadi. O'zlashtirishi juda qiyin bo'ladi.

Eng avvalo shunday holatda o'quvchilarning ijtimoiy, iqtisodiy va jismoniy-psixologik tomonini to'liq o'rganish maqsadga muvofiq. Bu toifa o'quvchilar bilan fan bo'yicha emas o'quvchiga mehribon ota-onaday ko'ngliga yo'l topib, unga nimalar yetishmasligi, sog'ligi, uyidagi shart-sharoiti, uning orzusi kelajagidagi rejalari haqida batafsil suhbat qilibunga hayotiy voqealardan, ibratli kishilar hayotidan, eng sara o'quvchi yoshiga mos badiiy asar, kinolar mazmunidan aytib, sharhlab hayotga qadamni dadil tashlash uchun maktab orzularini ruyobga chiqaruvchi maskan, ustozlar ota-onalar kabi mehribon kishilar ekanligini, yolg'iz emasligini anglatib hayotga motivatsiya berish zarur. O'quvchi albatta o'zgaradi. SWOT metodidan foydalanish bu toifa o'quvchilarga juda yaxshi samara beradi.

Nazoratsiz e'tibordan chetda qolgan o'quvchiga mehr, e'tibor unga hurmat juda kerak ekanligi yaqqol seziladi. Yetishmaydigan fazilatlarni maktabdan topsa, bu o'quvchi albatta maktabga intiladi va darslarga to'la qatnashishga intiladi.

Erkatoy, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga ota-ona obro'sini oshirib ularni umidi sizlardan deb qiziqitirib, maktabdagi drama to'garagiga qatnashirib o'ziga o'xshagan erkatoyni ijro ettirib kelajagini ko'z o'ngiga keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ota yoki onasi, yo'q yoki notinch oiladagi bo'sh o'zlashtiruvchi, davomati past o'quvchi bilan butun maktab jamoasi doim yaqin aloqada bo'lish kerak. Ularni oilaviy sharoiti bilan tanishib yo'qotganlarini o'rnini bosuvchi maktab jamoasi bo'lishi shart.

Bunday bolalarni dili yaralangan, mehrga muhtojligi bor. Arzimagan gapga jahli tez chiqadi, yig'laydi yoki janjalkash bo'ladi. Qalbi yaralangan, qalbidagi og'riqni yashirish uchun bu toifa o'quvchilar to'kis oila farzandidan tubdan ajralib turadi. Bu kabi o'quvchilarda doim muammo bo'ladi.

Abdurauf Fitrat aytganidek; Jaholat deb o'qimagan bilimsiz, hech narsaga tushunmaydigan nodonlig'ini aytulur. Jaholat insoniyatning eng zo'r dushmani va yomon xulqlarning boshlig'idir deb bilimsizlarga ta'rif bergan.

Haqiqatdan ham biz ustozlar uchun yoshlarning ta'lim-tarbiyasi nihoyatda dolzarbligi o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yuqoridagi holatlardagi past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni darsga jalb etishning quyidagi turli ko'rinishlari mavjud. Bular quyidagilardan iborat.

- Bugungi kun o'qituvchilari ota-ona kabi mehribon, ma'naviyatli, o'z o'rnida qattiq qo'l, hayotga motivatsiya bera oladigan bilimli bo'lishi shart.
- O'qituvchi o'z o'rnida fanidan berilgan topshiriqlarni nazoratsiz qoldirmasligi lozim.
- Topshiriqlarni bajarish bo'yicha o'quvchilar o'rtasida ballardan iborat bo'lgan musobaqa tashkil etish.
- Dars mashg'otlarini turli xil ko'rinishlarda tashkil etish.
- Maktabda turli to'garaklar ishini mazmunli o'tishni tashkil etish /
- Tadbirlarni, fan oyliklarni qiziqarli tashkillashtirish.
- Ota-onalar yig'lishlarida otalarni ko'proq ishtirok etishini ta'minlash.
- O'quvchini har bir iqtidoriga e'tibor berib taqdirlab borish. Haftalik, oylik testlarni fanlardan doimiy o'tkazilishini qattiq nazoratga olish.
- Testlardan yaxshi natijalarga erishgan o'quvchilarni taqdirlab borish.
- Ta'lim majburiy ekanligini qonun oldida ota-ona, ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarga javobgarligini tushuntirish ishlarini yaxshilash.

Shunday qilib o'qituvchilar ixtiyorida, ta'lim-tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishda to'la imkon bera oladigan o'qitish uslublarining boy xazinasini hozirgi kunda mavjud. Shu bilan bir qatorda maktablarda uslublardan yuzaki foydalanish ham kutilgan ta'lim-tarbiyaviy natijalarni bermaydi. Bir darsda nihoyatda ko'p metodlardan yuzaki samara uchun foydalanishga, ularni tez-tez almashtirib turish va xo'jako'rsin uchun darsga tatbiq qilishga va shuningdek, rasm bo'lib

qolgan biron bir metodning rolini haddan tashqari oshirib yuborishga also yo'l qo'yib bo'lmaydi. Maktab pedagogik faoliyatida rasmiyatchilikni bartaraf qilishni qat'iy talab etadi. Maktabdagi o'qitish tajribasining tahlili o'qitish uslublarini qo'llashdagi ayrim kamchiliklar ni aytib o'tish imkonini beradi .

- O'qituvchilar o'quv jarayonida ishlab chiqarish ekskursiyalari kamligi;
- O'z kasbini ustalari bilan mahorat darslarini ko'proq tashkil etish;
- Tadqiqotchilik tajribalaridan yetarli foydalanmaydi.
- Amaliy ishlar va kuzatishlarga kam e'tibor beriladi.
- Darslik bilan mustaqil ishlashga ko'p e'tibor qaratilsa
- O'qitishning madaniyatini oshirish;

Maktablarimizning ta'lim-tarbiya sifatini oshirish vazifalarini hal qilishga ,uning o'sib kelayotgan yosh avlod faol o'qiydigan ,astoydil mehnat qiladigan har tamonlama yetuk kadrlar tayyorlaydigan maktabga aylanishga yordam beradi.

Natijada past o'zlashtiradigan o'quvchi faol o'quvchiga ,harakatchan va muzokaralarda qatnashadigan bo'ladi. Odatda o'quvchilarda kreaktiv fikrlar ko'p bo'ladi. Ularni ich-ichidan qiziqishini oshirish va fikrlarini ochiq-oydin aytishga o'rgatish , agar kerak bo'lsa mustaqil fikrlarini 'sug'irib' olish kerak. O'qituvchidan kuchli pedagogik mahorat ,sabr-toqatli yondashuv, ustozlarcha mehr-muhabbat, e'tibor kabi ezgu fazilatlar bo'lishi muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi kunda ba'zi o'qituvchilar, yoki o'quvchi ich-ichidan xohlaydigan fazilat mehrdir. Bu fazilat kundan kunga yo'qolib borayapti. Maktab dargohida mehrlri, sabr bardoshli, bilimli pedagoglarni ko'paytirilsa ta'lim-tarbiya ishida sifat keskin ortadi. Ma'lumki hozirgi kunda hech kimga sir emas ishsizlik, oilalarda yetishmovchilik natijasida ko'p oilalar notinch yoki ota-onasi ajrashgan, ota-onalar chetda ishlaydi. Bunday oilalar farzandi aziyat chekishadi. Albatta bu farzandlarga alohida e'tabor mehr yetishmaydi. Bolalar shu yetishmaydigan insoniy fazilatlarini maktab dargohidan topishga intiladilar. Davlatimizga elkama-elka bo'lish uchun shu kunni o'qituvchisi qalbida Vatanga sadoqat,viydon o'quvchiga nisbatan ustozlik mehri buloq singari qaynab turishi lozim.Shunda kutilgan natijalarga erishish va yurtimizning nufuzini yuqori darajalarga ko'tara oladigan, zamon talablariga javob beradigan kadrlar tarbiyalanib yetishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2016-yil 7-dekabr Prezident Sh.M.Mirziyoyev O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganining 24-yilligiga bag`ishlangan ma`ruzasi.
2. Samarqand viloyati Narpay tumani 60f -Maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Gadayeva Nasiba Niyazovna